“O‘z kasbining mohir egalari” munosib taqdirlandi

O‘zbekiston kasaba uyushmalari Federatsiyasi kengashi tomonidan kasaba uyushmasi tizimidagi barcha tashkilot va korxonalarda fidoyilik bilan mehnat qilayotgan, “Ustoz-shogird” an’analarini davom ettirayotgan, mamlakatimiz rivojiga munosib hissa qo‘shayotgan yurtdoshlarimizni rag‘batlantirish maqsadida turli ko‘rik-tanlovlar e’lon qilingan va shunday tadbirlarni o‘tkazish hamda g‘oliblarni taqdirlash an’anaga aylangan.

2018-yil 11-oktabr kuni “O‘z kasbining mohir egalari” ko‘rik-tanlovining Toshkent shahar bosqichi bo‘lib o‘tdi. Unda O‘zbekiston Fanlar akademiyasi Fizika-texnika instituti direktori Avezova Nilufar Robbanaqulovna, Genetika va o‘simliklar eksperimental biologiyasi instituti ilmiy kotibi Qurbanboyev Ilxom Jumanazarovich, Immunologiya va inson genomikasi instituti katta ilmiy xodimi Xatamov Xayrilla Musurmanovich, O‘zbek tili, adabiyoti va folklori instituti bo‘lim mudiri Odilov Yorqinjon Raxmonoliyevich hamda Fundamental kutubxona direktori Berdiyeva Zuxra Shukurovnalar ham g‘olib bo‘lib, diplom va qimmatbaho sovg‘alar bilan taqdirlandilar.

G‘oliblarni O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi nomidan qutlab, mamlakatimiz ravnaqi yo‘lidagi ishlariga rivoj, sihat-salomatlik tilab qolamiz!